



Cholgʻu ijrochiligi: puflama va zarbli cholgʻular  
mutaxassisligi 2-kurs magistranti Safarov  
Zahiriddin Fazlitdin oʻgʻli

## MUSIQACHI VA PEDAGOG

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Oʻzbekiston respublikasida xizmat koʻrsatgan artist, OʻzDK professori Baxodir Salixovning xayot va ijod yoʻliga bagʻishlanadi. Baxodir Salixovning moxir sozanda, professional pedagog va oʻz kasbining fiydoiyisi sifatlariga urgʻu beriladi.

**Анотация:** Данная статья посвящена жизненному и творческому пути заслуженного артиста Республики Узбекистан, профессора УзДК Баходира Салихова. Делается акцент на качествах Баходира Салихова как искусного музыканта, профессионального педагога, преданного своему делу.

**Kalit soʻzlar:** Simfonik orkestr, ifodali ijro, pedagogik mahorat, Respublika va xalqaro tanlovlar, musiqiy til, ilmiy-tadqiqot ishlar, oʻquv qoʻllanmalar, maqola, ustoz-shogird anʼanalari.

Sizga soʻzlamochi boʻlgan bu qahramonimiz - hayotda va tanlagan kasbida oʻz oʻrnini topgan inson boʻlib, u Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan artist Baxodir Salixovdir. Baxodir Salixov Sobirovich-mana qirq yildirki oʻzining klarnet cholgʻusidagi ijrosi bilan Oʻzbekiston milliy simfonik orkestrining palitrasini boyitib va bezatib kelayotgan oʻzbek damli-cholgʻuchilardan biridir.

Uning ijrosidagi sehri ohanglar simfonik konsert tinglovchilarining eʼtiborini qozonib kelgan. Hattoki koʻpchilik jahon mumtoz musiqasi ixlosmandlari konsertlarda aynan uning sahnadagi chiqishini iliq kutib olish uchun tashrif buyurishadi.

Baxodir Salixov-respublikamizdagi birinchi klarnetchi-sozanda boʻlib, u bu cholgʻuning shuhratini olamga yoydi va boshqa cholgʻularning orasida oʻz oʻrniga ega ekanligini isbotladi.

Shu oʻrinda qoʻshimcha qilib aytib oʻtish kerakki, bu sanʼatkor orkestr ijrochiligi faoliyati bilan birga, konsert-ijrochiligi va pedagoglik faoliyatini ham uygʻunlikda olib bormoqda. U Oʻzbekiston davlat konservatoriyasining professori lavozimida ham samarali faoliyat olib borib, oliy oʻquv yurtining ijodiy va oʻquv hayotida sobitqadamlik bilan faol ishtirok etib kelmoqda.

Qahramonimiz aytganidek: - «Kasbimizning baxti shundaki, u odamlarga quvonch olib keladi, shu bilan birga ezgulikkka chorlaydi».

Baxodir Salixov 1946 yil 26 noyabr kuni Toshkent shahrida tavvalud topgan. Uning ota-onasi garchi musiqachi boʻlishmagan boʻlsalar-da, biroq musiqani dildan sevuvchi insonlar boʻlishgan. Shuning uchun ham yosh Bahodirni musiqaga boʻlgan qiziqishi erta Bundan tashqari N.Sharapov va Krupinskiy rahbarligida orkestr sinfidan ham bilimlarni oʻzlashtirdi. Bu insonlar oʻz shogirdlariga mehr qoʻyishib, uning kelajagi va bugunidan doim qaygʻurishgan.



Maktabda erta tongdan yarim tungacha musiqa yangrab, tarbiyalanuvchilar go'yoki sehrli ohanglar ta'sirida tushib qolishganday bo'lishardi. Mana shunday muhit yosh Bahodirni musiqaga bo'lgan qiziqishini yanada ortirar, yetuk sozanda bo'lish maqsadi sari etaklar edi.

Uning bo'lajak sohasini tanlashida muhim rol o'ynagan ilk ustози L.I.Suxovdan klarnet sinfi bo'yicha tahsil olgan. Salixov bu haqda eslab bunday deydi: «Man klarnet cholg'usini tezda tanlamadim va unga ko'ngil qo'ymaganman.

Harbiy maktabga o'qishga kirayotgan kezarimda mening bo'lajak ustozim Lev Ivanovich Suxov klarnet sinfida shug'ullanishimni tavsiya qilganlar. Men bu cholg'u haqida hech narsani bilmasdan takliflariga rozi bo'lganman. Asta-sekinlik va sabr-bardosh bilan Lev Ivanovich meni mashaqqatli bo'lgan yo'lni bosib o'tishga tayyorlar va tinimsiz mehnat qilishga undardi».

B.Salixov maktabni muvaffaqiyatli tamomlagach Toshkent davlat konservatoriyasida dotsent K.A.Azimov sinfida o'qishini davom ettiradi. Bu sinfda u ijrochilik texnikasini oshirib, musiqa nazariyasi va tarixi fanlaridan dunyoqarashini kengaytirdi. Bu uning san'atkor sifatida yetuklikka intilgan yillari edi.

Bu intilish esa uning yakkanavoz-klarnetchi, ansambl ijrochisi, artist va pedagoglik kabi ko'pgina ijodiy qirralarini ochdi. Konservatoriyadagi besh yillik o'quv yili davomida tajribali ustoz rahbarligida o'zbek klarnet ijrochiligi maktabi an'analari o'rgandi. Bundan tashqari u K.A.Azimov rahbarligida o'zining yakkanavozlik ijro repertuarini boyitdi.

Uning repertuarida Bax, Motsart, Veber, Gabler, Rimskiy-Korsakov, Taneev va shu bilan bilgan XX asr kompozitorlari I.Stravinskiy, F.Pulenk, V.Feliks, F.Gidash, P.Xindemit, A.Messaj, E.Bozz, P.Sankan, P.Sverts, J.Frans kabi zamonaviy musiqalar ham o'rin olgan.

Shu bilan birga unga V.Sokolov, L.Maxaylov, V.Bezruchenko, S.Mayer, F.Am, K.Layster, F.Bend, K.Krik kabi jahonning mashhur sozandalarning ijrosini tinglar, ularni tahlil etar, yangi ijrochilik uslublarini topar edi.

B.Salixovning O'zbekiston milliy simfonik orkestridagi uzoq yillik ijodiy faoliyati bilan birga, uning hayotida muhim o'rin egallagan pedagoglik faoliyati ham tahsinga sazovordir. 1976 yildan boshlab, 30 yildan ortiq ijrochilik bilan birga dastlab, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida keyinchalik esa, O'zbekiston davlat konservatoriyasida faoliyatini olib boradi. 1997 yildan esa u «Damli va zarbli cholg'ular» kafedrasini mudiri lavozimida ishlab kelmoqda. O'zining pedagoglik faoliyati haqida qahramonimiz shunday deydi: Men o'z ishimni davom ettiradigan yoshlarni tarbiyalab yetishtiraman.

Ular hozirda mening izimdan borib, simfonik orkestrda ishlashmoqda. Men yoshlarga ishonaman va ular bilan ishlashni juda ham yaxshi ko'raman. Pedagoglikka katta ishtiyoq bilan yondashaman. Mening pedagoglik dunyoqarashim bu – o'quvchilarimning bilim saviyasining oshishi, o'zining ijrochilik qiyofasini topishi hamda har birining individualligining namoyon bo'lishidir.

B.Salixov dastlabki faoliyatini V.Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashgan musiqa akademik litseyida 3-4 sinf o'quvchilariga ta'lim berishdan boshladi. Yosh o'quvchilar bilan ishlash nihoyatda mashaqqatli jarayon bo'lsa-da, u o'z qilayotgan ishidan



mamnun edi. Dars jarayonida pedagog diqqatini ko'proq o'quvchi ijrosining badiiy tomoniga qaratadi.

U musiqachining oxirgi maqsadini, asarni chuqur va original talqin etishida deb hisoblaydi. Shu maqsadda Baxodir Sobirovich, tarbiyalayotgan o'quvchilariga doimo musiqiy jumalarning ustida astoydil mulohaza yuritishiga hamda ijroning ifodali jaranglashishiga erishish lozimligini uqtirib keladi. Baxodir Sobirovich o'quvchilari bilan individual mashg'ulotlar olib borish chog'ida o'quvchilarining ijrosini diqqat bilan tinglab, jaranglayotgan tovush intonatsiyasini sofligiga va tekisligiga ahamiyat beradi. U sabr va puxtalik bilan yosh ijrochilarga to'g'ri nafas qo'yadi.

Salixov talabalari bilan ijodiy muloqotda bo'lish uchun avvalo juda ham zarur bo'lgan do'stona munosabatlar, ruhan chambarchas bog'liqlik, bir-biriga bo'lgan o'zaro ishonch kabilarni o'rnatadi. U o'zining chinakam pedagoglik mahoratiga tayangan holda, har bir o'quvchining o'ziga xos qobiliyatini aniq va to'g'ri his qilardi.

Ijrodagi kamchiliklarni aniq ko'rsatish bilan birga, ularni bartaraf etish yo'llarini ham izlab topishni va ularni amaliyotda tadbiq etish kabi murakkab vazifalarni ham mohirlik bilan uddalaydi. Baxodir Sobirovichning dars jarayonida sinf o'quvchilari nafaqat mashg'ulotlarni olib borish uchun balki, bir-birining ijrosini tinglash uchun ham ishtirok etadi.

Avvalambor mashg'ulotlarni boshlashdan avval o'quvchilar, o'qituvchi ijrosidagi yangi asarni tinglashadi (jo'rnavor bilan birga) va asar bilan tanishuv jarayonida uning qisqacha tahlilini olib boradi. Dars mobaynida o'qituvchining qo'lida sevimli bo'lgan klarnet cholg'usi bo'ladi.

Sababi o'quvchilarga musiqiy asardagi jumalarda aynan qanday tovush hosil qilish, passajlarning ijrosi va applikaturalarni to'g'ri tanlash kabi saboqlarni amaliy ko'rsatib beradi. Bunda ustoz og'irlik va bosiqlik bilan yondashib darslarni har tomonlama qiziqarli va mazmunli o'tishiga harakat qiladi.

Salixovning aytishicha: «O'qituvchilik faoliyati har bir musiqachini o'stiradi va bilim doirasini boyitadi. Tanlagan kasbining ko'pdan-ko'p sirlarini ochib beradi. Darvoqe o'quvchilarimning xato va kamchiliklari, muvaffaqiyatlari mening ijrochiligimdagi yutuqlarga bexiyor ta'siri bor. Bunday vaziyat mening ijrochilikda olib borayotgan izlanishlarimdagi xato va kamchiliklarni tez fursatda tuzatishga hamda sening ijodiy xazinangni foydali bo'lgan jihatlar to'ldiradi».

Ustozning bir qator shogirdlari nufuzli tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritgan. Jumladan, S.Umarov yosh bo'lishiga qaramasdan to'rt tanlovning laureati hisoblanadi. S.Umarovni 2000 yili Moskva shahrida bo'lib o'tgan S.Rozanov nomidagi Xalqaro tanlovda kompozitor F.Pulenk asarlarining eng yaxshi ijrochisi sifatida tan olinib, maxsus sovrin bilan taqdirlashgan.

Bundan tashqari, respublika va xalqaro tanlovlar laureatlari A.Galimzanov (Tolyatti shahri 2001), S.Qosimov (Astana 2005), respublika tanlovlari laureatlari R.Chir-Chir (birinchi o'rin 1993), S.Cheryomuxin (birinchi o'rin 1995), S.Umarov (ikkinchi o'rin 1997-1999 birinchi o'rin 2001), S.Golovin (birinchi o'rin 2003), D.Babin (birinchi o'rin 2005).



Albert Galimzanov o'zining o'qituvchisi iliq so'zlar bilan tilga olib shunday deydi: «Salixovning sinflarida mashg'ulotlar olib borgan kezzarim mening hayotimda o'chmas iz qoldirdi. U bizga o'zining musiqiy tili bilan murojaat qilardi. Sinfdan ruhanib, jo'shib ba'zan esa o'zimdanda norozi bo'lib chiqib ketgan kezzarim ham bo'ldi. Ammo Bahodir Sobirovichdan menga bergan maslahatlarining amalga oshgani uchun minnatdorman. Ular bizdan har doim barcha musiqiy yo'nalishlarning tabiatini his etish, asarni ichki hissiyot bilan emas balki uni anglab ijro etishni talab qilar edi».

B.Salixov o'zining boy ijrochilik va pedagogik tajribasini ilmiy-tadqiqot ishlari bilan umumlashtirib, oliy o'quv yurti, litsey va kollej talabalari uchun klarnetda chalish uslubiyoti haqidagi o'quv qo'llanmalar, hamda respublikamizning madaniy hayoti bilan bog'liq yozilgan yana bir qancha maqolalari chop etilmoqda.

### Foydalangan adabiyotlar

1. Jabborov A. O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari.-T., Yangi asr avlodi, 2004
2. Matyakubov B. Damli va zarbli cholg'ularda chalishni o'rganish uslubiyoti.-T., "Musiqqa" 2009.
3. Melkomin V. Znachenie ansamblevoy podgotovkai v obuchenii muso'kanta-ispolnitelya na duxovo'x instrumentax.-T., 2008 (rukopis).
4. Salixov V.S.-Klarnet ijrochiligining uslubiy masalalari-M., 2007.
5. Petrov R., Matyakubov B. Cholg'ushunoslik va cholg'ulashtirish.-T., "Turon-Iqbol", 2006.
6. Salixov V., Matyakubov B. O'zbekistonda damli va zarbli cholg'ular ijrochiligi tarixi.-T., 2007